

Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanganlik ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom deb yuritiladi) ishlab chiqarishda shikastlanganlik hamda yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari xodimlarining noqulay mehnat sharoitlarida ish bilan bandligi ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibini belgilaydi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

Uslubiy nizom baxtsiz hodisalar va ularning moddiy oqibatlarini hisobga olish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlariga asoslanadi. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) bu boradagi tavsiyalari hamda "Mehnat statistikasi to'g'risida"gi 160-sonli va "Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari to'g'risida"gi 187-sonli konvensiyalarida belgilangan tamoyillardan foydalanilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy atamalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi:

xodimlarning o'rtacha soni – mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, yil boshidan hisobot oyigacha bo'lgan davrdagi o'tgan barcha oylar uchun xodimlarning o'rtacha oylik sonini yig'indisi summasini yil boshidan boshlab davr uchun oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

noqulay mehnat sharoitlarida bandlik – sanitariya-gigiyena me'yorlariga, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va ko'rsatmalariga javob bermaydigan salbiy ishlab chiqarish omillari ta'sirida ishlayotgan xodimlar sonini aks ettiruvchi ko'rsatkich;

ish sharoitlari – mehnatni amalga oshirish vaqtidagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi;

baxtsiz hodisa – xodimning ish beruvchi hududida ham, uning tashqarisida ham o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda, shu jumladan ish

beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o'tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa;

ishlab chiqarish bilan bog'liq shikastlanish – bu xodim tomonidan mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik natijasida olingan, shuningdek, tananing anatomik yaxlitligi yoki uning funksiyalari buzilishiga olib keladigan har qanday tashqi omillarning inson tanasiga to'satdan ta'siri natijasida kelib chiqqan shikastlanishdir;

ishlab chiqarishda shikastlanish – ish beruvchining hududida mehnat majburiyatlarini bajarish paytida, shuningdek, ish beruvchi taqdim etgan transportda ishga yoki ishdan ketayotganida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar tufayli bir ish kuniga yoki undan ko'proq vaqt davomida ishga layoqatligini yo'qotish yoki o'limga olib kelishi natijasida jabrlanganlar soni.

2-bob. Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishda shikastlanishlarni kuzatish tartibi

2. Xodimlarning noqulay mehnat sharoitida bandligi to'g'risidagi ma'lumotlar asosiy iqtisodiy faoliyat turi sanoat, qurilish, aloqa, transport va saqlash bo'lgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari (kichik korxonalar va mikrofirmalar bundan mustasno) tomonidan elektron shaklda taqdim etiladigan 1-msh "Mehnat sharoitlari ahvoli to'g'risida"gi hisobot ma'lumotlari yagona metodikasi asosida yig'iladi hamda iqtisodiy faoliyat turlari, hududlar va boshqa belgilar bo'yicha ishlab chiqiladi.

3. Ishlab chiqarishda shikastlanish to'g'risidagi statistika ma'lumotlari yagona uslubiyat bo'yicha yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari tomonidan taqdim etiladigan mehnat hisobotlari asosida yig'iladi va iqtisodiy faoliyat turlari, hududlar va boshqa belgilar bo'yicha ishlab chiqiladi.

4. Ishlab chiqarishda shikastlanish to'g'risidagi mehnat statistikasi kuzatuv shakllarini to'ldirish uchun baxtsiz hodisalar to'g'risidagi dalolatnomalar, mehnatga layoqatsizlik varaqalari, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomalari birlamchi hisob hujjatlari hisoblanadi.

3-bob. Noqulay mehnat sharoitida bandlik bo'yicha ko'rsatkichlarni shakllantirishning uslubiy asoslari

5. Belgilangan tasniflarga muvofiq, noqulay ishlab chiqarish omillari zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarini o'z ichiga oladi.

Mehnat sharoiti ishlab chiqarish muhitining zararlilik va xavflilik omillari, mehnat jarayonining og'irligi va intensivligi ko'rsatkichlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Noqulay mehnat sharoitida bandlik noqulay ishlab chiqarish omillari ta'sirida ishlayotgan xodimlar sonini aks ettiradi.

6. Noqulay ishlab chiqarish omillarini kompleks baholash – mehnat sharoitlarining gigiyenik me'yorlarga muvofiqligini aniqlash, ish o'rinlarining shikastlanish xavfini baholash, xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanganligini aniqlashni o'z ichiga oladi.

7. Mehnat sharoitlarining gigiyenik standartlarga muvofiqligini aniqlash ishlab chiqarish (texnologik) jarayonlari, korxona faoliyati davomida ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillari (kimyoviy, biologik, fizik, mehnat jarayonining og'irligi va intensivligi) darajasini instrumental o'lchash va baholash orqali amalga oshiriladi.

8. Ish joylarining shikastlanish xavfini baholash mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normalar, qoidalar va ko'rsatmalar talablariga muvofiq amalga oshiriladi, ushbu himoyalarning bajarilmasligi xodimlarga shikast yetkazishi mumkin:

mexanik ta'sirlar;

elektr tokining ta'siri;

yuqori yoki past haroratlarga ta'sir qilish;

kimyoviy moddalarning toksik ta'siri.

9. Xodimlarning shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishini baholash belgilangan tartibni, shaxsiy himoya vositalarining muvofiqligi sertifikatlari mavjudligini va ularning mehnat sharoitlariga muvofiqligini tekshirishni o'z ichiga oladi.

4-bob. Ishlab chiqarishda shikastlanish ko'rsatkichlarini shakllantirishning uslubiy asoslari

10. Quyidagi baxtsiz hodisalar ishlab chiqarishda shikastlanish sifatida hisobga olinadi:

Korxona hududida va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta'siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan shikastlanish, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek, tabiiy ofatlar (zilzilalar, o'pirilishlar, suv toshqinlari, to'fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

o'z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek, avariylarning, odamlar halok bo'lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo'lsa ham, korxona manfaatlarini ko'zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotganda;

xodim xizmat safarida bo'lgan yoki o'z funksional vazifalarini bajarish vaqtida – yo'l-transporti hodisasidagi, temir yo'l, havo yo'llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasida;

ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo'ljallangan transportda, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma)ga muvofiq, o'zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotganda;

ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug'i mavjud, bo'lganda;

ish beruvchining topshirig'ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek, mehnat faoliyati xizmat ko'rsatish obyektlari orasida yurish bilan bog'liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotganda;

tadbirlarning o'tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat'i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, ko'ngilli yong'in muhofazasi musobaqalari o'tkazilayotganda, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilganda, ish beruvchining yozma farmoyishi bo'yicha korxona tomonidan otaliq yordami ko'rsatilayotganda;

ichki ishlar organlarining ma'lumotlari asosida – ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilganda;

smenali dam olishda bo'lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek, vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

11. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo'qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o'tishi zarur bo'lsa, tegishli shakldagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Mazkur dalolatnomalar asosida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar soni, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida jabrlanganlar, shu jumladan o'lim bilan tugagani to'g'risida hisobot tuziladi.

Boshqa korxonaning ajratilgan uchastkasida ish olib borayotgan korxona xodimi bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, u ish olib borayotgan korxona tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi.

Ish beruvchining yozma farmoyishi bilan vaqtincha boshqa tashkilotga ishga o'tkazilgan yoxud o'rindoshlik bo'yicha ishlayotgan xodim bilan baxtsiz hodisa yuz bersa, baxtsiz hodisa sodir bo'lgan tashkilot tomonidan tekshiriladi va hisobga olinadi.

Korxona tomonidan ishlab chiqarish amaliyoti uchun ajratilgan uchastkada o'qituvchilari rahbarligida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan yoki ish bajarayotgan o'quvchilar, talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalar ta'lim muassasalari tomonidan korxona vakili bilan birgalikda tekshiriladi va ta'lim muassasasi tomonidan hisobga olinadi.

12. Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi hisobot yilida tugagan, bir ish kuni va undan ko'proq mehnatga layoqatini yo'qotgan shikastlanuvchilarning mehnatga layoqatsizlik kishi-kunlari soni tibbiyot tashkilotlari tomonidan berilgan barcha mehnatga layoqatsizlik varaqalari bo'yicha jamlash orqali aniqlanadi. Agar jabrlanuvchi hisobot yilidan oldingi yilda shikastlangan bo'lsa va uning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi hisobot yilida tugagan bo'lsa, mehnatga layoqatsizlik kishi-kunlari soni ham hisobot yili uchun hisobotda aks ettiriladi.

13. Baxtsiz hodisalarning moddiy oqibatlari kasb kasalliklari bo'yicha umumiy to'lovlar, bir martalik nafaqalar, xodimning butunlay mehnatga layoqatliligini yo'qotishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun oylik to'lovlar va baxtsiz hodisa natijasida boquvchisining vafoti munosabati bilan qaramog'idagilarga to'lanadigan to'lovlar, xodim sog'lig'iga yetkazilgan zarar, baxtsiz hodisa natijasida tashkilotga yetkazilgan moddiy zarar (shu jumladan shikastlangan jihozlar, asboblari, vayron qilingan binolar va inshootlarning qiymati), jabrlanuvchilarning mehnatga layoqatsizlik varaqalari bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi.

14. Mehnatni muhofaza qilish – mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta‘minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi.

15. Tashkilotning mehnatni muhofaza qilish tadbirlari uchun xarajatlari sut mahsulotlari va davolash-profilaktik ovqatlanish, tashkiliy, texnik, sanitariya – gigiyena tadbirlari, xodimlarni mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘qitish xarajatlarini o‘z ichiga oladi.

5-bob. Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash

16. Noqulay mehnat sharoitlarida bandlikni tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

Sanitariya-gigiyena me‘yorlariga javob bermaydigan sharoitlarda ishlaydigan xodimlar ulushi (foizda) ko‘rsatkichi belgilangan sanitariya-gigiyena me‘yorlaridan ortiq bo‘lgan kamida bitta zararli ishlab chiqarish omili ta‘sirida ishlaydigan xodimlar sonini tegishli iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xodimlarning umumiy soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Og‘ir jismoniy mehnat bilan band bo‘lgan xodimlar ulushi (foizda) ko‘rsatkichi qo‘lda bajariladigan og‘irliklarni ko‘tarish va harakatlantirish ishlarining smenadagi jismoniy yuklamasi ruxsat etilgan maksimal yuklama normasidan oshib ketadigan xodimlar sonini tegishli faoliyat turlari bo‘yicha xodimlarning umumiy soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan asbob-uskunalarda ishlaydigan xodimlarning ulushi (foizda) ko‘rsatkichi mehnat xavfsizligi standartlar tizimi talablariga javob bermaydigan asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlarda ishlaydigan xodimlar sonini tegishli faoliyat turlari bo‘yicha xodimlarning umumiy soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

17. Ishlab chiqarishda shikastlanish darajasini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

- **ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning chastota koeffitsiyenti (K_1)** ma‘lum bir davrdagi 1000 nafar ishlovchi xodimga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarda jarohatlangan xodimlar sonini ifodalaydi hamda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_1 = \frac{L_i * 1000}{L}, \quad (1)$$

bu yerda:

L_i – ma'lum bir davrda sodir bo'lgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarda shikastlangan xodimlar soni, kishi;

$\bar{L}$ – ma'lum bir davr uchun xodimlarning o'rtacha soni, kishi.

- **ishlab chiqarishdagi o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalarning chastota koeffitsiyenti (K_2)** ma'lum bir davrdagi 1000 nafar ishlovchi xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida halok bo'lgan xodimlar sonini ifodalaydi hamda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_2 = \frac{L_m * 1000}{\bar{L}}, \quad (2)$$

bu yerda:

L_m – ma'lum bir davrda sodir bo'lgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarda halok bo'lganlar soni, kishi;

$\bar{L}$ – ma'lum bir davr uchun o'rtacha xodimlar soni, kishi.

- **shikastlanishning og'irlik koeffitsiyenti (K_3)** bitta shikastlanuvchiga to'g'ri keladigan mehnatga layoqatsizlik kunlari sonini tavsiflaydi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_3 = \frac{D}{L_i}, \quad (3)$$

bu yerda:

D – bir ish kuni va undan ko'proq mehnatga layoqatini yo'qotgan shikastlanuvchilarning mehnatga layoqatsizlik kunlarining umumiy soni;

L_i – ma'lum bir davrda sodir bo'lgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarda shikastlangan xodimlar soni, kishi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

18. Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va shikastlanishni statistik kuzatish natijasida hududlar, iqtisodiy faoliyat turlari va boshqa jihatlar bo'yicha ma'lumot olish imkoni yaratiladi.

Ishlab chiqarishda shikastlanganlik hamda yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari xodimlarining noqulay mehnat sharoitlarida ish bilan bandligi ko'rsatkichlari tasdiqlangan mehnat statistikasi hisobotlari asosida yillik davriylikda yig'iladi.

Ushbu Uslubiy nizom ishlab chiqarishda shikastlanganlik hamda yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari xodimlarining noqulay mehnat

sharoitlarida ish bilan bandligi ko'rsatkichlarini statistik kuzatishning asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Noqulay mehnat sharoitlarida bandlik va shikastlanish to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar rasmiy sayt, davriy nashrlar, xalqaro darajada taqqoslash uchun tuzilgan xalqaro tashkilotlar savolnomalari orqali tarqatiladi.

Rasmiy statistika ma'lumotlari foydalanuvchilarga yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari asosida ham taqdim etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
3. XMTning "Mehnat statistikasi to'g'risida"gi 160-sonli Konvensiyasi.
4. XMTning "Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari to'g'risida"gi 187-sonli Konvensiyasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 286-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi "Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 60-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi "Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" 263-son qarori.
8. Методологические положения по статистике производственного травматизма (Белстат).
9. Энциклопедия статистических терминов "Демографическая и социальная статистика" (Росстат)